# IQTISODCHI KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI MOLIYALASHTIRISH MASALALARI

**Umarova Zevi Odilovna**
*Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi katta o'qituvchisi*
zeboumarova1967@gmail.com
**Nurboyeva Zilola Yangiboyevna**
*Jizzax politexnika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada iqtisodchi kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini moliyalashtirish masalalari tahlil qilingan va tegishli takliflar berilgan.*

**Tayanch so`zlar:** *kadrlarni tayyorlash, moliyaviy boshqaruv, malaka oshirish, o`z-o`zini moliyalashtirish, samaradorlik, moliyaviy mexanizm, moliyaviy boshqaruv konsepsiyasi.*

Bozor islohotlarining o‘ziga xos jihati shundan iboratki, ularninng amalga oshirishda inson omili etakchi rol o‘ynaydi. Ushbu omilni faollashtirishda esa kadrlar malakasini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, kadrlar malakasini oshirish ta’lim majmuini, malakali kadrlar tayyorlash ko‘p darajali tizimni rivojlantirish yangi konsepsiyani ro‘yobga chiqarishga, iqtisodiyotda zarur siljishlarni amalga oshirishga, insonning iqtisodiyotdagi va ijtimoiy sohalardagi o‘zgarishlarga moslashuvini ta’minlashga imkon beradi. Islohotlarning natijalari bevosita malaka oshirish ta`lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog‘liqdir.

SHu bois iqtisodchi kadrlar malakasini oshirish tizimini moliyaviy boshqarishni takomillashtirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov ".....agar biz haqiqatdan ham qashshoqlik va qoloqlik kishanlaridan qutulmoqchi bo‘lsak, yoshlarni tayyorlash bilan juda jiddiy shug‘ullanishimiz, zamonaviy kasblarni egallashda ularga yordam berishimiz kerak" (1) deb ta’kidlaganlari bejiz emas edi. CHunki iqtisodiyot sohasi vakillarini tarbiyalash, o‘qitish, malakasini oshirib borish ijtimoiy himoyalash taraqqiyotining garovidir.

Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarni rivojlantirishning zarurligi, bu sohaning moliyaviy boshqarishini takomillashtirish, muammolarini ilmiy jihatdan chuqurroq

o‘rganish hamda malaka oshirishga ajratilayotgan mablag‘larning foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llarini izlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Iqtisodchi kadrlar malakasini oshirish mamlakat iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to’gri ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiyotning rivojlanishi yoki tanazzulga yuz tutishi aynan iqtisodchi kadrlarning bilim darajalariga bog‘liqdir.

Ta’kidlash lozimki, iqtisodchi kadrlar malakasini oshirish tizimini moliyalashtirishda xarajatlar xajmi to’gridan to’gri ta’lim xizmatlari narxiga bog’lik bo’ladi. Uni rivojlanishiga o‘zining xarakteri, qiyinchilik darajasi, amal qilish muddatlarining turli xilligi bilan ajralib turuvchi bir qancha omillar tasir ko‘rsatadi. Ularni ikkita guruhga ajratish mumkin: tashqi hamda ichki omillar (1- chizma).

1- chizma

Iqtisodchi kadrlar malakasini oshirish tizimini moliyalashtirish omillari

Tashqi omillar

- inflyasiya darajasi
- xududdagi mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan narx
- O‘quv markazining hududiy joylashganligi
- tabiiy iqlim sharoiti
- ijtimoiy-demografik vaziyat
- hududdagi o‘rtacha oylik ish haqi
- yangi ishlab chiqilgan moliyaviy qonunlar

Ichki omillar

- ta’lim berish dasturlari to‘plami
- tinglovchilar kontingentining o‘ziga xos xususiyati(markazda)
- O’quv markazi moddiy-texnik bazasining holati
- malaka oshirishga muhtoj iqtisodchi kadrlar soni
- yuqori malakali iqtisodchi pedagog xodimlar tarkibi

Iqtisodchi kadrlarni malakasini oshirish tizimining moliyaviy boshqaruvi malaka oshirish markazlarida moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq tamoyil va metodlarni tayyorlashda va boshqaruv qarorlarini amalga oshirishda hamda uning pul mablaglari aylanmasini tashkistlantirishda namoyon bo’ladi.

Moliyaviy boshqaruv malaka oshirish va qayta tayyorlash o‘quv markazi operatsion faoliyatini yuqori sur’atlarda o‘sishida kerakli resurs potensialini

shakllantirishiga, xususiy kapitalining doimiy oʻsishiga, strategik istiqbolida barqaror iqtisodiy rivojlanishni taʼminlashga imkon beradi.

Bozor koʻrinishidagi moliyalashtirish deganda asosan qarz evaziga moliyalash nazarda tutilali. Qarzga olingan moliyaviy mablagʻ bank tomonidan berilgan kredit va loyihalash orqali olingan moliyaviy mablagʻlar koʻrinishida boʻladi.

Aralash koʻrinishdagi moliyalashtirish esa homiylar tomonidan begaraz moliyalashtirish, davlat sherikchiligi koʻrinishdagi moliyalashtirish, yani bundan davlat manfaatdor boʻlgan holda va kredit olishda davlat tomonidan kafillik berilishi kabi moliyalashtirishlar nazarda tugiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrdagi “YAngi Oʻzbekiston maʼmuriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida Farmoniga muvofiq, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bogʻliq qarorlar ijrosini samarali amalga oshirishda ilmiy yondashuvlar va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirilmoqda. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti negizida **Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutini,** Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi negizida **Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabini** tashkil etish toʻgʻrisidagi takliflari maʼqullanib, Davlat byudjetidan moliyalashtirish oʻquv markazlarning xarajatlarini davlat tomonidan qoplanishi va xarajatlarning har biri bilan isbotlangan tarzda amalga oshirilishi belgilab berildi. Bunga muvofiq “**YAshil iqtisodiyotni ilgari surish va joriy etish**” **loyiha ofisi** va **Biznes inkubator va startap loyihalar bilan ishlash markazlari faoliyati yo`lga qo’yildi.**

Oʻzbekiston iqtisodchilar forumini tashkil etish, xorijiy ekspertlarni jalb qilish hamda xodimlarni moddiy ragʻbatlantirish maqsadida Institut qoshida yuridik shaxs boʻlmagan **Tadqiqotlarni qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish jamgʻarmasi** tashkil etilsin va uning moliyalashtirish manbalari etib, Davlat byudjetidan **har yili** Institutning bir yillik mehnatga haq toʻlash jamgʻarmasining **40 foizi** miqdorida ajratiladigan mablagʻlar, **2023 yilda** Oʻzbekiston Respublikasining respublika byudjeti parametrlarida **Institut va Oliy maktab faoliyat koʻrsatishi uchun nazarda tutilgan mablagʻlar**, 2024 yildan boshlab belgilangan tartibda Davlat byudjeti parametrlarida koʻzda tutiladigan mablagʻlar; jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari nazarda tutildi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda iqtisodchi kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda quyidagilarga alohida eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz mamlakatimizda rivojlangan gʻarbiy mamlakatlar kabi iqtisodchi kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash oʻquv

markazlarini moliyalashtirishni davlat byudjeti yoki maxsus fond foydasiga korxona va ish beruvchilarning majburiyto'lovlari hisobiga amalga oshirish lozim; malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv markazlarini vaucher usulida moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir; malaka oshirishning barcha bosqichi uchun byudjet mablag'larini jon boshiga qarab ajratish tamoyiligi o'tish lozim: iqtisodchi kadrlar malakasini oshirish tizimi xarajatlarini samarali moliyalashtirishni amalga oshirish uchun malaka oshirish tizimini mablag' bilan ta'minlash hamda xarajatlarini amalga oshirishda tizimning byudjetdan tashqari maxsus hisob raqamiga jalb qilinadigan boshqa pullik xizmatlar tushumlarini ko'paytirish modelidan foydalanish va uni kengaytirish hamda oqilona me'yor asosida malaka oshirish o'quv markazlarini homiylar tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish tartiblarini va shu bilan birga moliyaviy yordam ajrattan homiy tashkilotlarga soliq imtiyozlari berishni kengroq joriy qilish va pullik o'qitishni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish lozim.

Iqtisodchi kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash o'quv markazlarida malaka oshirish tizimini moliyaviy boshqarishni takomillashtirish natijasida byudjet mablag'larining taqsimlanishi va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishning yangi shakl va usullarini qo'llash O'zbekiston Respublikasi davlatchiligini mustahkamlash jarayonini barqarorlashtirishga xizmat qiladi, hamda malaka oshirishning o'sib boruvchi ehtiyojlarini moliyalashtirishning yangi va qo'shimcha imkoniyatlarini qidirib topishga imkon beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - T.: O'zbekiston, 2001.-486 6.
2. Abdurahmonov Q.X. Xolmo'minov SH.R., Zokirova N.Q, Personalni boshqarish. T.: O'qituvchi, 2008. — 305 b.
3. Vahobov A.V., Sirojiddinova 3.X. O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti. -T.: Iqtisod-moliya, 2001. — 174 b.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrdagi «YAngi O`zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PF-269-son Farmoni
5. Yahyoyevna, O. F., & Alexandrovich, A. A. (2024). THE ROLE OF FINANCIAL MANAGEMENT IN IMPROVING THE FINANCIAL CONDITION OF ENTERPRISES. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 44-47.

**6.** Obidova, F. Y. (2023). QURILISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASH USLUBIYOTI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(4), 74-78.

**7.** Feruza, O. (2023). How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, *2*(3), 12-17.

**8.** Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2023). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(3), 203-207.

**9.** Obidova, F. Y., & Umarova, Z. O. (2023). BOSHQARUV FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA KADRLARNING GENDER TENGLIGI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(3), 208-215.

**10.** Feruza, O. (2023). How to Create Effective Marketing Strategies for Your Business. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, *2*(3), 12-17.

**11.** Yahyoyevna, O. F. (2023). FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF INNOVATIVE POTENTIAL AND ITS TRANSFORMATION. *World Economics and Finance Bulletin*, *18*, 72-77.

12. Umarova, Z. O. (2020). BUSINESS OPPORTUNITY FOR TOURISM DEVELOPMENT. *Экономика и социум*, (10), 275-278.

13. Умарова, З. О., & Пулатова, М. (2020). CREATION OF AGROSERVICE SERVICES IN AGRICULTURE. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (6-4), 22-25.

14. Rasulova, S. G., & Obidova, F. Y. (2019). ISSUES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (9), 426-429.

15. Obidova, F., & Umarova, Z. (2021). FOREIGN EXPERIENCE OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. *Экономика и социум*, (5-1), 376-379.

16. Obidova, F. Y. (2020). GREEN INNOVATION IN BUSINESS MARKET. *Экономика и социум*, (10), 191-194.

17. Obidova, F. Y. (2021). PROSPECTS FOR INNOVATIVE DEVELOPMENT OF TOURISM. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-10), 91-95.

18. Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2021). MANAVIY QADRIYATLARIMIZ-MILLIY TARBIYA OMILI. *Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах)*, *5*(1), 137-140.

19. Obidova, F. Y., & Umarova, Z. O. (2021). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNING O'RNI. *Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах)*, *3*(7), 25-29.

20. Obidova, F. Y., & Muminova, M. (2019). РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 44-47.

21. Obidova, F. Y. (2020). SMALL BUSINESS IN THE ECONOMY. *Economy and Society*, (2), 264.

22. Umarova, Z. O., & Obidova, F. Y. (2019). SIGNIFICANCE OF FREE ECONOMIC ZONES IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY. *Actual scientific research in the modern world*, (2-6), 53.

23. Obidova, F. Y. (2017). REFORMING OF THE EDUCATIONAL SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Actual scientific research in the modern world*, *13*(11-13), 87.

24. Умарова, З. О., & Обидова, Ф. Я. (2019). Значение свободных экономических зон в развитии национальной экономики. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (2-6), 53-57.

25. Турумова, Д. (2022). Банк назоратида ички ва ташқи аудит ўтказишнинг аҳамияти. *Science and Education*, *3*(12), 1013-1022.

26. Турумова, Д. (2022). Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, *3*(10), 640-645.

27. Abdumannonovna, T. D. (2023). WAYS OF DEVELOPING THE INTERNAL AUDIT SERVICE IN BUSINESS ENTITIES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *2*(8), 37-40.

28. Turumova, D. A., & o'g'li Tolibboyev, Q. G. (2023). AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(6), 234-240.

29. Turumova, D. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI–AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(4), 608-612.

30. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA MUHIMLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, *2*(14), 60-62.

31. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITING MOLIYAVIY BOZOR UCHUN ZARURLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *3*(34), 290-294.

32. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH.

33. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, *2*(22), 243-248.

34. Abdumannonovna, T. D. (2024). IMPORTANCE AND ROLE OF INTERNAL AUDIT IN ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *3*(1), 6-9.

35. Abdumannonovna, T. D. (2024). DEVELOPMENT AND USEFUL ASPECTS OF AUDITING ACTIVITY IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *3*(1), 15-18.

36. Abdumannonovna, T. D., & Abdurasul, A. D. (2024). FORMATION OF STATE FINANCE AND AUDIT ACTIVITY IN THE EARLY PERIODS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *3*(1), 34-37.

37. Abdumannonovna, T. D., & Sherzod, K. S. (2024). SIGNIFICANCE AND ROLE OF INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *3*(1), 57-60.

38. Abdumannonovna, T. D. (2024). FRAUD DETECTION IN AN AUDIT. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, *3*(1), 136-140.

39. Yaxyayevna, R. B. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 2(3), 23-26.

40. Yaxyayevna, R. B. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(3), 37-40.